

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI MUSIQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Xurshid Beknazarov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya : Ushbu maqolada O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasiga qaratilayotgan e’tibor, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida musiqiy kompetentlikni oshirish va didaktika xususida so‘z borada.
Kalit so’zlar: san’at, musiqa, pedagog, cholg‘u, risola, ta’lim, tarbiya, an’ana.

Mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, zamonaviy madaniyat va san’at muassasalarini barpo etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yuksak namunalaridan baxramand etib, ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 aprel kuni “Madaniyat va san’at xodimlari kuni” munosabati bilan yo‘llagan tabrigida so‘ngi yillarda soha rivojiga qaratildi. Jumladan, bu borada qabul qilingan bir qator qonun, farmon va qarorlar milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga hamda madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qilayotganligi alohida ta’kidlandi. Mazkur qonun hujjatlarida bu boradagi islohotlarning yangi strategiyasi qabul qilinib, hayotga izchil joriy etilyotganligi xususida so‘z boradi.

Darhaqiqat, so‘ngi yillarda mamlakatimizda olib borilgan ishlar negizida milliy san’atimizning noyob turlari tiklanganligi, o‘nlab yangi madaniyat va san’at muassasasi faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi, teatr, muzey va qo‘riqxonalar tashkil etilganligi, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, Milliy maqom san’ati va Baxshichilik san’ati markazlari, hududlarda namunaviy maqom va baxshichilik ansamblari, Teatr va kino arboblari uyushmalari, «Bahor» davlat raqs ansamblini qayta tiklanganligi, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Qo‘qon filiali, Nukus filiallari, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali, Respublika musiqa va san’at kolleji hamda Nukus opera va baxshichilik maktabi tashkil etilganligi soha rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratib berilayotganligini ko‘rsatib turibdi. Ayniqsa, O‘zbekistonda baxshichilik, maqom va hunarmandchilik bo‘yicha xalqaro festivallarning muntazam o‘tkazib kelinayotganligi milliy madaniyatimizni jahon miqyosida keng yoyilishiga xizmat qilib xalqning qadimiy va betakror san’ati dunyo hamjamiyatining yuksak e’tiroflariga sazovor bo‘lib kelmoqda. «Xorazm lazgisi» va baxshichilik san’ati YUNESKOning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani esa buning yaqqol dalilidir.

Haqiqatdan ham farzandlarimizni turli buzg‘unchi g‘oyalar va ma’naviy taxdidlardan ximoya qilishda madaniyat va san’at xodimlarining mehnati beqiyos. Mamlakatimizda ularning mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirish, jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini oshirish maqsadida 15 aprel sanasi “Madaniyat va san’at xodimlari kuni” etib belgilanganligi ham bu soha rivoji uchun ham yangi qadam bo‘ldi.

Tarix sahifalariga nazar solar ekanmiz, Alisher Navoiy o‘z asarlarida musiqani chuqur o‘rganib, shunday degan edi: “Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqt musiqagini odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o‘z-o‘zidan qanoat tuyg‘usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi”. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashxur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” kitobida Amir Temur davrida o‘tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to‘xtalib, “Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g‘azalu naqsh aytur erdilar. Va turku mo‘g‘ul, xitoyu arab va ajamdan har kim o‘z rasmi bilan nag‘ma aytur erdi”¹ deb yozadi.

Shu ma’noda aytish mumkinki, bugungi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari har tomonlama yetuk kadr bo‘lib yetishishlari, uchun o‘zbek xalq cholg‘ulari vositasida musiqiy kompetentligini rivojlantirishda didaktik tamoyillarning o‘rni beqiyos albatta.

Didaktika pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo‘lib, unda o‘qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so‘zma-so‘z tarjimasi «ta’lim nazariyasi» ma’nosini anglatadi. Didaktika «yunoncha» so‘zdan olingan bo‘lib, «didacticos» – o‘rgatish, o‘qitish ma’nosini bildiradi.

Didaktika – ta’lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslاب beruvchi ta’lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fan tushuniladi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Yan Amos Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657 yilda u chek tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati»² deb tushuntirdi.

Buri Ziyomuhhammadov “Pedagogik mahorat asoslari”³ o‘quv qo‘llanmasi da quyidagi fikrlarni ilgari suradi.

Ko‘p yillik izlanishlar va bahslar natijasida pedagogikada quyidagi dars o‘tishning umumiy tamoyillar tizimi ishlab chiqilgan:

- 1) Ongilik va faollik – bilimni talabalar tomonidan ongli ravishda va faol qatnashib egallashlik;
- 2) Ko‘rgazmalilik – “yuz marotaba eshitgandan bir marotaba ko‘rgan yaxshi” tamoyilidan kelib chiqib, bilim berishda turli-tuman ko‘rgazma qurollardan samarali foydalanish;
- 3) Tizimlilik va muntazamlilik – bilimni ma’lum bir tizimda va uzuksiz ravishda berib borish;
- 4) Mustahkamlik – bilimni tushunarli tilda qayta-qayta takrorlash yo‘li bilan berish;
- 5) Tushunarilik – bilimni hammaga tushunarli va hammabop qilib berish;

¹I.Karimov/Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent.2008 140 bet

² B.X.Xodjayev / Umumiy pedagogika/ Darslik. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil,

³B.Ziyomuhhammadov/ Pedagogik mahorat asoslari 99- bet

6) Ilmiylik – bilimni bolalarda avvaldan mavjud bilimlarga asoslanib va ulardan kelib chiqqan holda berish;

7) Nazariya va amaliyot birligi – bilim berishda nazariy bilimlarning amaliyotda ishlashini, ya’ni uning hayot bilan, amaliyot bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berish.

Didaktika tamoyillarining tarixi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar dars oldidan ko‘zlagan maqsadlariga ko‘p kuch sarflamay yetishlari uchun, bir necha avlod olimlari tinimsiz izlanishlar olib borib, didaktika prinsiplar majmui yaratilishiga sababchi bo‘lganlar.

O‘quvchining qo‘srimcha o‘rgangan, shu jumladan ushbu ro‘yxatda keltirilmagan musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish ko‘nikmasiga egaligi haqida ham uning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga tegishli qo‘srimcha qayd kiritiladi.

Ustoz To‘xtamurod Zuparov “Soz va sozgarlik tarixi” kitobida, “Har bir millat o‘z tarjimai holini bir emas, balki uch kitobga yozadi. Bu kitoblarining birinchisi, “Kitobi amal”, ya’ni o‘sma xalq amalga oshirgan ishlarning va bosib o‘tgan yo‘lining tarixi. Ikkinci kitob – “Kitobi kalom”, ya’ni o‘sma xalq yaratgan so‘z san’ati bo‘lmish adabiyoti va nihoyat, uchinchi kitob, “Kitobi sanoyi”, ya’ni o‘sma xalqqa mansub san’at va hunarlar.”⁴.

Tarixga nazar tashlasak, o‘zbek xalqi tarjimai holining uchala kitobi ham bag‘oyat ko‘hna va benihoya boy ekanligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu borada mamlakatimizda madaniyat va san’at rivoji bo‘yicha chiqarilayotgan qator qaror va farmoyishlar ham bejizga emas.

O‘ylaymizki ta’limga, musiqa san’atiga qaratilgan bu kabi e’tibor albatta o‘z samarasini berib, umumta’lim maktablarida o‘qiyotgan har bir o‘quvchi musiqa san’atimizga, madaniy meroslarimiz xususida boy bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lib bitirishadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. I.Karimov/Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent.2008 140 bet
2. B.Xodjayev /Umumiyy pedagogika Darslik. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
3. B.Ziyomuhhammadov/Pedagogik mahorat asoslari
4. T.Zuparov/Soz va sozgarlik tarixi/MERIYUS,Toshkent.2014 .41-bet
5. Lex.uz

⁴T.Zuparov/Soz va sozgarlik tarixi/MERIYUS,Toshkent.2014 .41-bet